INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI MUSIQA GURUHLARI VA JAMOALARI NOMLARINING QIYOSIY-LINGVISTIK TAHLILI

Yusupova Gulizebo Yangibayevna
International School of Science, Finance and Technology, teacher;
Independent Researcher, UzSWLU.
yusupovagulizebo@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu tezisda ingliz va o‘zbek tillaridagi musiqa guruhlari hamda jamoalari nomlari (*bandonimlar*)ning onomastik xususiyatlari, lisoniy yasalihi va lingvo-madaniyatshunoslik qonuniyatlari qiyosiy tadqiq etiladi. Tadqiqotda bandonimlarning struktural-semantik tiplari, toponimik, metaforik hamda an'anaviy-janriy qatlamlari tahlil qilingan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi jamoa nomlarida so‘z o‘yinlari, ellipsis va mavhum metaforalar ustunlik qilsa, o‘zbek jamoalari nomida klassik *Maqomot* atamalari, hududiy toponimlar va milliy-poetik ramzlar yetakchilik qiladi.

Kalit so‘zlar: bandonim, ergonomastika, qiyosiy tilshunoslik, musiqa terminologiyasi, toponim, lingvo-madaniyatshunoslik, Maqomot.

Annotation

This thesis presents a comparative study on the onomastic features, linguistic derivation, and culturological patterns of musical ensemble names (*bandonyms*) in English and Uzbek. The study analyzes the structural-semantic types, toponymic, metaphoric, and traditional-genre layers of bandonyms. The findings indicate that while English bandonyms prioritize puns, structural ellipsis, and abstract metaphors, Uzbek ensemble names lean toward classical *Maqom* terminology, regional toponyms, and national poetic symbols.

Keywords: bandonym, ergonomastics, contrastive linguistics, musical terminology, toponym, linguo-culturology, Maqomot.

Аннотация

В данном тезисе проводится сравнительный анализ ономастических особенностей, языкового образования и лингвокультурологических закономерностей названий музыкальных групп (*бандонимов*) в английском и узбекском языках. Исследованы структурно-семантические типы, топонимические, метафорические и традиционно-жанровые слои бандонимов. Результаты показывают, что в английских названиях преобладают языковая игра, эллипсис и абстрактные метафоры, тогда как в узбекских – классическая терминология *Макома*, топонимы и национально-поэтическая символика.

Ключевые слова: бандоним, эргономастика, сопоставительное языкознание, музыкальная терминология, топоним, лингвокультурология, Макомот.

Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda musiqa guruhlari, orkestlar va ansambllarga berilgan nomlar onomastikaning alohida tarmog‘i hisoblangan **ergonomastika** (aniqrog‘i, **bandonimika**) doirasida o‘rganiladi. Bandonim — shunchaki oddiy nom emas, balki guruhning musiqiy janri, estetik yo‘nalishi va milliy-madaniy o‘zligini jamlagan ixcham lisoniy belgi hisoblanadi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi jamoa nomlarini qiyosiy tadqiq etish har ikkala xalqning musiqiy tafakkuri va tildan foydalanish tamoyillaridagi o‘ziga xosliklarni ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqa guruhlari va jamoalar nomlariga oid terminlar

Ansambl, guruh, dasta, kvartet, trio, duet, orkestr.

3. **Musiqiy kasblar, unvonlar va mutaxassisliklar (bastakor, sozanda)** oid terminlar: bu gurihga kiruvchi terminlar asosan – – chi qo’shimchasi orqali yasalishi faol Masalan: qo’shiqchi, dutorchi, musiqachi, skripkachi.

O’zbek tiliga musiqa terminlari asosan ingliz, fransuz, italyan, nemis, arab, fors va yunon tillarida o’zlashgan bo’lib, shu asosli aytim so’zlarga o’zbek tilidagi affikslar qo’shilishi orqali yasaladi, yani o’zlashma so’zga o’zbekcha affiks qo’shilishi yoki birinchi qismi o’zlashma keying qismi o’zbekcha yoki teskarisi shaklida so’zlar hosil qilinadi.

Masalan: ashulachilik- ashula (arabcha)- chilik, maqom+ chilik, **chi**, va **-kor** qo’shimchasi bilan yasaladi masalan, doira**chi**, baraban**chi**, qo’shiq**chi**, skripka**chi**, , sanat**kor**, musiqa**chi**, karnay**chi**, aranjirovka**chi**

Fe’l + yasovchi qo’shimcha			
№	**So’z**	**Tahlil**	**So’z ma’nosi**
1	chaluvchi	chal- + -uvchi	asbob chaluvchi shaxs
2	kuylovchi	kuylash + -uvchi	ashula aytuvchi
3	ijrochi	ijro + -chi	ijro etuvchi
4	sozlovchi	sozla- + -vchi	sozlaydigan shaxs
5	bastalovchi	basta + -lovchi	bastakor
6	yaratuvchi	yarat- + -uvchi	yangi narsa yaratuvchi
7	g’ijjak**chi**	g’ijjak + **-chi**	chaluvchi
8	basta**kor**	Basta + **-kor**	Musioqa yaratuvchi
9	bastakorlik	bastakor + -lik	bastakorlik kasbi
10	ijrochilik	ijrochi + -lik	ijrochilik san’ati

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Musiqiy faoliyatga oid terminlar bu guruhga oid terminlar asosan ot, va harakat nomi shaklida bo'lib fe'lli birikmalar orqali ham ifodalanishi mumkin.

(musiqa asbobi nomi) … **ni** chalmoq, aranjirovka qilmoq, bastalamoq, dvijyorlik qilmoq, ijod qilmoq, yaratmoq, kuylamoq, va hokazolar.

Musiqiy janrlarga oid terminlar. Falak (xalq qo'shig'ining bir turi. Falak - O'zbek xalq og'zaki ijodining janrlaridan biri bo'lib, u ko'proq xalq qo'shig'i turkumiga kiradi. "Falak" asosan janubiy O'zbekiston (Surxondaryo, Qashqadaryo) va tojik tilida so'zlashuvchi hududlarda keng tarqalgan bo'lib, og'ir hayot, taqdir, qismat, iztirob, iltijo kabi mavzularni o'zida aks ettiradi. Bundan tashqari janr nomlariga metafora yoki ramziy ma'no yuklanishi mumkin – misol uchun, maqom atamasi arab tilidagi "joy, makon" so'zidan olingan bo'lib, dastlab cholg'u ansamblaridagi muayyan pardani bildirsa-da, keyinchalik muayyan ohang tizimi, uslub yoki janrni ifodalovchi tushunchaga) opera, Estrada, balet, ballada, lapar, folklore, klassik musiqa, maqom

ingliz tilidagi musiqa terminlari asosan nemis, fransuz, italyan va lotin tillaridan olingan. Masalan, Allegro (italyan), Ballet (fransuz) adagio (italyan), Aria (italyan, Concerto (italyan), repertoire(fransuz) ensemble (frnasuz), leitmotif (nemis) klang (nemis), leid (nemis), chord (lotin) Symphony (lotin), Orchestra (lotin), alterato (italalyan), altere (fransuz), altgeige (nemis), altisono(italyan), altissimo (italyan)

Tadqiqotimiz davomida shuni angladikki ingliz tiliga italyan tiliga kirib kelgan musiqa terminlarining aksariyati klassik ingliz davri musiqasi va barokko davriga to'g'ri keladi. Fransuz tilidan o'zlashgan terminlarning aksariyati balet, raqs, sahna ijrosiga oid. Nemis tilidan o'zlashgan terminlarning asosiy qismi esa romantic davr musiqasi uslubiga ayniqsa, Vegner va nemis musiqasi bilan bog'liq.

Ingliz tili musiqa terminologiyasi o'zining gibrid tabiati bilan ajralib turadi. Masalan, "music" so'zi grekcha ildizga ega bo'lsa-da, u ingliz tiliga lotin va fransuz tillari filtri orqali kirib kelgan. Bu qatlamlar tahlili ingliz xalqining boshqa madaniyatlar bilan bo'lgan lingvo-kultural aloqalarining bevosita in'ikosidir.

Metaforik asosli leksika: Ingliz tili musiqa terminologiyasida metafora tushunchasi insonning jismoniy tajribasini mavhum tovushlar olamiga ko'chirishga asoslanadi. jumladan

fazoviy va vertical metaforalar (spatial metaphors) inson tovush chastatasini fazoviy balandlik sifatida tasavvur qiladi. bu eng keng tarqalgan metaforik qatlam bo'lib, quidagi terminlar bunga misol bo'la oladi.

High/Low pitch (baland-pastligini) – bilamizki tovushlarning jismoniy balandligi yo'q bo'lib, amoo biz chastotani vertical masofaga qiyoslashimiz mumkin.

Scale (Gammalar) – lotincha scala (narvon) so'zidan olingan bo'lib, tovushlar bo'ylab yuqoriga ko'tarilish yoki dam pastga tushush tushunchalarini anglatadi.

Steps and Leaps (qadamlar va sakrashlar) – bu atama melodiyaning bir tondan
ikkinchi bir tonga o'tishi degani, yani insonning harakatlanishiga o'xshatiladi.

Interval(oraliq) – ikki tovush orasidagi masofa bo'ladi.

Rang va yorug'lik metaforasi (visual/color metaphors): tahlilning bu qismida tovushning tembr xususiyatlarini tasvirlash uchun visual olamdan tushunchalar o'zlashtiriladi. *:* Ingliz tilida musiqa terminlarining so'z yasalishi o'ziga xos derivatsion modellar asosida amalga oshadi. Bu jarayon ham ichki imkoniyatlar yani affiksatsiya, kompozitsiya va o'zlashma omillar hisobiga shakillanadi.

Birinchi: Affiksatsiya usuli bilan yasalishi: bu usulda o'zakka prefiks qo'shimcha yokida suffiks qo'shish orqali yangi termin yasalishi. Masalan: suffiksatsuya yo'li bilan:

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ist- qo'shimchasi asosan shaxs otlarini yasaydi. Jumladan, Guitarist, cellist, lutenist, vocalist kabi. Shu bilan birga *sound+track= soundtrack, song+ writer= songwriter* (qo'shiqchi va yozuvchi) kabi shaklda ham ingliz tilida musiqa terminlari yasaladi.

-er/or- bu terminlar faoliyat bilan bog'liq bo'lib, masalan: *Composer(bastakor), singer(xonanda), conductor(dirijyor).*

-ion/-ation. bu termin asosan jarayonni ifodalaydi. Masalan: *instrumentation* (cholg'ulashtirish), *modulation* (modulyatsiya), *vibrato.*

-ic. Sifat yasovchi qo'shomcha masalan, *Harmonic (garmonik), melodic(melodik), rhythmic (ritmik).*

prefiksatsiya yani old qo'shimchalar yordamida:

Micro-: Microtone (mikroton-chorak tonlar)

*Poly-: polyphony (*ko'p ovozlilik*), polyrhythm* (ko'p ritmlilik).

A-: Atonality (atonallik-tonallikning yo'qligi)

Inter-: Interlude (qismlar orasidagi o'tish). Musiqa terminlarini ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zning birlashishi orqali yangi musiqiy tushuncha hosil bo'lishi, ingliz tili uchun bu eng mahsuldor usullardan biridir. Ingliz tilidagi morfologik jihatdan Sifat + ot shaklidagi yasalishlar juda ko'p uchraydi shu jumladan quyidagi yasalishlarda buni isbotini ko'rishimiz mumkin:

Masalan, adjective+ noune (sifat + ot)

Grand piano- Katta royal (yoki konsert royali)

Incidental music- Sahna musiqasi / Oraliq musiqasi (drama yoki spektaklga qo'llanadigan)

Round dance- Aylana raqs yoki doira bo'lib raqsga tushish

Wind band - Nafasli cholg'ular orkestri

Wind instrument - Nafasli cholg'u asbobi

Percussion instrument - Urmalı cholg'u asbobi / Zarbli cholg'u asbobi

String instrument - Torli cholg'u asbobi

Program instrument- syujetli musiqa

Tuneful notes – ohangdor notalar

Hight-pitch – yuqori ton

Grand piano – royal

Woodwind – yog'och puflama cholg'ular

Ingliz tili musiqa terminlarining morfologik va sintaktik usullarda hosil bo'lish xususiyatlarini aniqlash hamda ularning tarkibiy modellarini tizimli ko'rsatish maqsadida tadqiqot ob'ektimizni maxsus qoliplarga ajratdik. Quyidagi 2.2-jadvalda musiqa terminlarining eng mahsuldor bo'lgan derivatsion qoliplari va ularning leksik-strukturaviy tavsifi aks ettirilgan:

2-2-jadval

Musiqa terminlarining strukturaviy-morfologik modellar tasnifi			
Modellar	**Komponentlar tarkibi**	**Inglizcha terminlar**	**Leksik-strukturaviy izohi**
Adjective + Noun (Sifat + ot)	Sifat + Ot	*Grand piano, incidental music, wind instrument, string instrument, high-pitch, round dance*	Sifat birinchi komponent bo'lib kelib, ikkinchi komponent — otning turini, xarakterini yoki guruhini belgilaydi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Noun + Noun (Ot + Ot)	Ot + Ot	*Keyboard, songwriter, drum kit, sound wave, music theory, guitar string, rhythm section*	Birinchi ot aniqlovchi funksiyasida kelib, murakkab musiqiy tushuncha yoki asbob qismini ifodalaydi.
Verb + Noun (Fe'l + Ot)	Fe'l + Ot	*Play guitar, read music, conduct orchestra, record track, turntable, compose song*	Fe'l musiqiy harakat yoki ijro jarayonini, ot esa o'sha harakat yo'naltirilgan ob'ektni bildiradi.
Gerund-based (Gerund asosida)	Harakat oti(-ing)	*Singing, composing, performing, recording, conducting, drumming, improvising*	-ing affiksi yordamida musiqiy harakat, sahna faoliyati yoki texnik jarayon otlashtiriladi.

Bandonimlarning Struktural va Semantik Tasnifiga ko'ra ingliz va o'zbek tillaridagi musiqa jamoalari nomlarini quyidagi 4 ta asosiy guruhga ajratish mumkin:

1. **Rasmiy va tavsifiy nomlar:**
   - **Ingliz tilida:** *London Symphony Orchestra, The Juilliard String Quartet, BBC Concert Orchestra*. (Guruh turi va ijro asbobi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatiladi).
   - **O'zbek tilida:** *O'zbekiston Davlat Maqom Ansambli, Akademik Simfoniya Orkestri, Doirachilar Guruhi*. (Aksariyat hollarda *Davlat*, *Milliy*, *Akademik* kabi rasmiy nufuz bildiruvchi sifatlar bilan birikadi).
2. **Toponimik (geografik) nomlar:**
   - **Ingliz tilida:** *Chicago, Boston Pops, Berlin Philharmonic*. (Shahar yoki shtat nomi to'g'ridan-to'g'ri brendga aylantiriladi).
   - **O'zbek tilida:** *Surxon, Zarafshon, Xorazm Tanavori, Toshkent Sadosi*. (Toponimlar shunchaki joyni emas, balki o'sha hududning o'ziga xos vokal va cholg'u ijrochilik maktabini anglatadi).
3. **Metaforik va ramziy nomlar:**
   - **Ingliz tilida:** *Coldplay, Nirvana, Radiohead, Imagine Dragons*. (Mavhum tushunchalar, ruhiy holatlar va zamonaviy psixologik obrazlar ustunlik qiladi).
   - **O'zbek tilida:** *Bulbul, Shodlik, Ganjina, Durfona*. (Klassik adabiyot, nafislik, go'zallik va qimmatbaho usullarga ishora qiluvchi an'anaviy ramzlar qo'llaniladi).
4. **Musiqa nazariyasi va janr atamalaridan yasalgan nomlar:**
   - **Ingliz tilida:** *The Brass Ensemble, Jazz Messengers*.
   - **O'zbek tilida:** *Yalla, Navo, Maqom, Usul, Sado, Shashmaqom*. (Milliy va mumtoz *Maqomot* tizimi atamalari to'g'ridan-to'g'ri jamoa nomiga aylanadi).

Ingliz va o'zbek bandonimlarining qiyosiy tahlil jadvalda shuni ko'rishimiz mumkinki ingliz va o'zbek tillaridagi bandonimlarni kelib chiqishi va qanday yo'llar bilan bir biriga bog'lanishini ko'rishimiz mumkin.

Tahlil mezonlari	**Ingliz tili bandonimlari (Anglo-Amerikacha model)**	**O'zbek tili bandonimlari (Milliy-an'anaviy model)**
Grammatik va morfologik usullar	**So'z o'yinlari va ellipsis:** Ko'plik qo'shimchalari (*The Beatles, The*	**Izofat va affiksatsiya:** Egalik birikmalari (*O'zbekiston Sadosi*),

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Tahlil mezonlari	Ingliz tili bandonimlari (Anglo-Amerikacha model)	O‘zbek tili bandonimlari (Milliy-an'anaviy model)
	Doors), sun'iy imlo o‘zgarishlari (*Def Leppard, Gorillaz*).	eponimik birikmalar (*Yunus Rajabiy nomidagi ansambl*).
Musiqiy-nazariy manba	Zamonaviy pop-rok va estradaga oid umumiy uslubiy atamalar.	Mumtoz *Maqomot* tizimi (*Navo, Usul*), milliy cholg‘u va janr nomlari (*Yalla, Doira*).
Semantik yo‘nalish	Subversiv (isyonkor), kinoyali, ekspressiv va tijoriy brendingga yo‘naltirilgan.	Nufuzli (*prestigious*), estetik bosiq, ohangdor (*euphonic*) va madaniy merosga yo‘nalgan.
Poetik va ramziy leksika	Postmodern adabiy trop va metaforalar (*Radiohead, Iron Maiden*).	Klassik Sharq adabiyoti, tabiat va san'at ramzlari (*Bulbul, Ganjina, Durfona*).
Sotsiolingvistik funksiyasi	Bozorda tez ko‘zga tashlanuvchi **tijoriy savdo belgisi** (*trademark*) hisoblanadi.	Milliy o‘zlikni va **akademik-madaniy izchillikni** ifodalovchi belgi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda ingliz va o‘zbek tillaridagi musiqa guruhlari va jamoalari nomlarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki:

1. **Ingliz tili bandonimiyasi** ko‘proq morfologik erkinlik, so‘z o‘yinlari (*puns*), imlo tajribalari hamda tijoriy brending qonuniyatlariga bo‘ysunadi.
2. **O‘zbek tili bandonimiyasi** esa qat'iy adabiy til me'yorlariga, klassik *Maqomot* nazariyasiga, boy poetik va hududiy-madaniy merosga tayanadi.

Ushbu farqlar har ikkala xalqning musiqani idrok etish madaniyati va dildan nomlash vositasi sifatida foydalanish mexanizmlari turlicha ekanligini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. **Akbarov, I.** (1997). *Musiqa lug‘ati*. Toshkent: O‘qituvchi.
2. **Crystal, D.** (2003). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge University Press.
3. **Pardayev, A., Urinbayeva, D., & Islamova, D.** (2020). *O‘zbek terminologiyasi*. Samarqand: SamDU nashri.
4. **Room, A.** (2006). *Nicknames of Rock and Pop Bands: A History of Band Names*. Jefferson: McFarland & Company.
5. **Yusupov, U.K.** (2007). *Contrastive Linguistics of English and Uzbek*. Tashkent: Fan.
6. **Akbarov, I.** (1997). *Musiqa lug‘ati*. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti. — 384 b.
7. **Begmatov, A.** (2012). *O‘zbek tili leksikologiyasi va onomastikasi masalalari*. Toshkent: Fan va texnologiya. — 216 b.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

8. **Crystal, D.** (2003). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press. — 496 p.
9. **Danilenko, V. P.** (2017). *Vvedenie v yazykoznanie: Kurs lektsiy*. 5-e izd. Moskva: Flinta: Nauka. — 288 s.
10. **Ivina, L. V.** (2003). *Linguo-cognitive basics of the analysis of professional terminology*. Moscow: Academy. — 304 p.
11. **Kittay, E. F.** (1967). *English Technical Terminology*. London: Longman. — 240 p.
12. **Komarova, Z. I.** (2016). *Tekhnologiya nauchnykh issledovaniy v sistemnoy metodologii sovremennoy lingvistiki*. Yekaterinburg: Ural University Press. — 208 s.
13. **Matyokubov, O.** (2004). *Maqomot*. Toshkent: Muzika nashriyoti. — 256 b.
14. **Nafasov, T.** (2009). *O'zbek tili toponimlarining izohli lug'ati*. Toshkent: O'qituvchi. — 312 b.
15. **Pardayev, A., Urinbayeva, D., & Islamova, D.** (2020). *O'zbek terminologiyasi*. Samarqand: SamDU nashriyoti. — 112 b.
16. **Petrovskaya, O.** (2008). *Formirovanie i razvitie muzykalnoy terminologii ispolnitelskogo iskusstva*. Moskva: RGUB. — 180 s.
17. **Room, A.** (2006). *Nicknames of Rock and Pop Bands: A History of Band Names*. Jefferson, North Carolina: McFarland & Company. — 248 p.
18. **Superanskaya, A. V.** (2009). *Obshchaya teoriya imeni sobstvennogo*. 3-e izd. Moskva: Nauka. — 368 s

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.